1 Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2005 йил 20 июндаги ПФ-3620-сонли “Микрофирмалар ва кичик корхоналарни ривожлан-тиришни рағбатлантириш борасидаги қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги Фармони

2 Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2005 йил 11 апрелдаги ПФ-3594-сонли “Тўғридан-тўғри хорижий хусусий инвестицияларни жалб этишни рағбатлантириш борасида қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги Фармони



O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni³ga ko'ra kichik tadbirkorlik subyektlari uchun yagona soliq to'lovi 2005-yilning 1-iyulidan boshlab mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun yagona soliq, budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi, Respublika yo'l jamg'armasi va Maktab ta'limi jamg'armasiga majburiy ajratmalar to'lash o'rniga yagona soliq to'lovi joriy etildi.

So'nggi yillarda yagona soliq to'lovi stavkasi 2005-yildagi 13 foizdan, 2012-yilning 1-yanvaridan sanoat sohasidagi mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun 6 foizdan 5 foizga, yoki 2 barobardan ortiq kamaytirilishi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivoji uchun katta imkoniyatlar berdi. Yangi tashkil etilayotgan mikrofirmalar va kichik korxonalarga yagona soliq to'lovini to'lash muddatini bir yilga kechiktirish, kechiktirilgan summani imtiyozli davr tugagandan keyin teng ulushlarda 12 oy davomida to'lash huquqi berildi.

Respublikamizda soliq yukini pasaytirish, soliqqa tortish tizimini soddalashtirish va unifikatsiya qilish, shuningdek, tadbirkorlik faoliyatining muayyan sohalarini qo'llab-quvvatlash maqsadida keyingi yillarda qator qo'shimcha soliq imtiyozlari va preferensiyalar berildi. Tadbirkorlikka maksimal darajada yanada qulay biznes-muhit yaratish, xususiy mulkning ustuvorligini mustahkamlash, uning ishonchli kafolatlarini ta'minlash hamda tadbirkorlikka ko'proq erkinlik berish va rivojlantirishga yo'naltirilgan keng chora-tadbirlar kompleksini amalga oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori⁴ga muvofiq tasdiqlangan "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yili"ning Davlat dasturi qabul qilindi.

Davlat dasturiga muvofiq, davlat va nazorat organlarining korxonalar moliya-xo'jalik faoliyatiga aralashuvini tubdan qisqartirish, tekshirishlarni tashkil qilish tizimini yanada takomillashtirish va mansabdor shaxslarning ular faoliyatiga asossiz aralashuvi uchun javobgarligini kuchaytirish, shu asosda tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlari himoya qilinishini kuchaytirishni ta'minlash maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni⁵ qabul qilinishi muhim ahamiyatga ega bo'ldi va quyidagilar belgilandi:

- yangi tashkil qilingan kichik tadbirkorlik subyektlarining (aksiz solig'iga tortiladigan tovarlar ishlab chiqaruvchi kichik tadbirkorlik subyektlari faoliyatini tekshirish, shuningdek budjet hamda markazlashtirilgan mablag'lar va resurslardan maqsadli foydalanish bilan bog'liq tekshirishlar bundan mustasno) moliya-xo'jalik faoliyati ular davlat ro'yxatiga olingan paytdan boshlab, dastlabki 3 yil mobaynida rejali soliq tekshiruvlaridan o'tkazilmasligi belgilandi;

- 2011-yilning 1-aprelidan 2014-yilning 1-apreligacha bo'lgan davrda soliqlarni va boshqa majburiy to'lovlarni o'z vaqtida to'lab kelayotgan, shuningdek ishlab chiqarish sur'atlarini barqaror o'sishi va rentabelligini ta'minlayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining moliya-xo'jalik faoliyatini soliq sohasida tekshirish ta'qiqlanishi belgilab berildi.

Bundan yuridik shaxslarni tugatish chog'ida, qo'zg'atilgan jinoyat ishlari doirasida, shuningdek budjet hamda markazlashtirilgan mablag'lar hamda resurslardan maqsadli foydalanish bilan bog'liq rejadan tashqari tekshirishlar bundan mustasno;

- kichik tadbirkorlik subyektlarida soliq tekshiruvlari o'tkazishning davriyligini aniq belgilash maqsadida, kichik tadbirkorlik subyektlari faoliyatini soliq sohasida tekshirish muddatlarini qonun hujjatlarida ularni o'tkazish ko'zda tutilgan maksimal muddatdan, ya'ni 30 kalendar kunidan ortiq muddatga uzaytirilishiga yo'l qo'yilmasligi belgilab qo'yildi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni moliyalashtirishning, aholi bandligi va farovonligini oshirishning muhim vositasi sifatida mikromoliyalash sohasini rivojlantirishni rag'batlantirish maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori⁶ qabul qilindi.

Ushbu qarorga muvofiq quyidagilar belgilandi:

- Tijorat banklarining imtiyozli kredit berish maxsus Jamg'armasi resurslari hisobidan kredit berishdan olinadigan tijorat banklarining daromadlari bo'shaydigan mablag'larni mazkur jamg'armaning resurs bazasini oshirishga maqsadli yo'naltirish sharti bilan yuridik shaxslar foydasidan to'lanadigan soliqdan 2011-yil 1-apreldan boshlab 2016-yilning 1-yanvarigacha ozod etildi.

- Tijorat banklarining imtiyozli kredit berish maxsus Jamg'armasi mablag'lari asosan olis va yetib borish qiyin bo'lgan tumanlarda, shuningdek mehnat resurslari keragidan ortiq bo'lgan tumanlar hamda shaharlardagi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohalarida, ishlab chiqarish mikrofirmalari, kichik korxonalar, dehqon hamda fermer xo'jaliklarida yuqori texnologik va innovatsion loyihalarni moliyalash uchun ajratilishi belgilab qo'yildi.

3 Ўзбекистон Республикаси Президентининг 20 июнь 2005 йилдаги ПФ-3620-сонли "Микрофирмалар ва кичик корхоналарни ривожлантиришни рағбатлантириш борасидаги қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида"ги Фармони

4 Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2011 йил 7 февралдаги ПҚ-1474 сонли Қарорига мувофиқ тасдиқланган "Кичик бизнес ва хусусий тadbirkorlik йили"нинг Давлат дastури

5 Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2011 йил 4 апрелдаги "Тadbirkorlik субъектларини текширишларни янада қисқартириш ва улар фаолиятини назорат қилишни ташкил этиш тизимини такомиллаштириш борасидаги қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида"ги ПФ-4296-сонли Фармони

6 Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2011 йил 11 мартдаги "Кичик бизнес ва хусусий тadbirkorlik субъектларига кредит беришни қўпайтиришга оид қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида"ги ПҚ-1501-сонли Қарори



2011-yil “Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yili” Davlat dasturiga muvofiq hamda tadbirkorlik faoliyatini keng rivojlantirish uchun qo‘shimcha qulay shart-sharoitlar yaratish, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish tartibini yanada takomillashtirish va xarajatlarini kamaytirish maqsadida, 2011-yil 12-mayda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Tadbirkorlik subyektlarini tashkil etish va davlat ro‘yxatidan o‘tkazish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 1529-sonli Qaror qabul qilindi.

Ushbu Qarorga ko‘ra, 2011-yil 1-iyundan xodimlarining yillik o‘rtacha soni 50 kishidan 100 kishigacha ko‘paytiriladigan kichik korxonalarining faoliyat turlari belgilab berildi. Shuningdek, 2011-yil 1-iyundan quyidagicha tartib belgilandi:

- yangi tashkil qilinayotgan mas‘uliyati cheklangan va qo‘shimcha mas‘uliyatli jamiyatlar ustav fondining eng kam hajmi davlat ro‘yxatidan o‘tish uchun hujjatlar taqdim etilgan sanada qonunchilikda belgilangan eng kam ish haqi miqdorining qirq baravaridan kam bo‘lmasligi kerak;

- tadbirkorlik subyektlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish ularning arizasiga ko‘ra namunaviy ta‘sis hujjatlari asosida amalga oshirilishi mumkin;

- tuman (shahar) hokimliklari huzuridagi tadbirkorlik subyektlarini ro‘yxatga olish bo‘yicha tegishli inspeksiyalarda tadbirkorlik subyektlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish uchun to‘lanadigan davlat boji stavkasi eng kam ish haqi miqdorining bir baravariga tengdir;

- tadbirkorlik subyektlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazishda notarial tarzda tasdiqlangan ta‘sis hujjatlarini taqdim etish haqidagi talab bekor qilinadi, xorijiy investitsiyali korxonalar va chet el sarmoyasi ishtirokidagi boshqa korxonalar bundan mustasno.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 14-mart 2007-yildagi Farmoniga⁷ ko‘ra:

1. Xo‘jalik yurituvchi subyektlarga besh yil mobaynida ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, texnik va texnologik qayta jihozlashga, yangi texnologik uskunalar xarid qilish, yangi qurilish shaklida ishlab chiqarishni kengaytirish, ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun foydalaniladigan binolar va inshootlarni rekonstruksiya qilishga, shuningdek, ushbu maqsadlar uchun berilgan kreditlarni qaytarishga, lizing obyekti qiymatini to‘lashga yo‘naltirilgan mablag‘lar miqdorida, tegishli soliq davrida amortizatsiya ajratmalarini chiqarib tashlagan holda, ammo soliqqa tortiladigan daromadning 30 foizidan oshmaydigan miqdorda foydadan olinadigan soliq bazasini kamaytirish huquqi berildi.

2. Ishlab chiqarishga joriy etilgan yangi texnologik jihozlar besh yil muddatga mulk solig‘idan ozod etildi.

3. Soliqqa tortishning soddalashtirilgan tartibi qo‘llaniladigan yuridik shaxslar uchun besh yil davomida yagona soliq to‘lovi to‘lashda soliqqa tortiladigan bazani xarid qilingan yangi texnologik jihozlar qiymatiga teng, ammo soliqqa tortish bazasining 25 foizidan ko‘p bo‘lmagan miqdorda kamaytirgan holda soliq imtiyozlari joriy etildi. Inqirozga qarshi choralar dasturiga muvofiq eksportchilar uchun qo‘shimcha imtiyozlar joriy qilindi.

Jumladan, eksport qiluvchi korxonalar uchun ilgari imtiyozlarni saqlab qolish, ya‘ni:

- foyda solig‘i, mol-mulk solig‘i va kichik biznes subyektlari uchun yagona soliq to‘lovi stavkalari pasaytirildi: agar eksport tovarlar ulushi ishlab chiqarilgan mahsulotning umumiy sotuv hajmida 15 foizdan 30 foizgachani tashkil qilsa, soliq stavkasi 30 foizga qisqaradi;

- agar eksport tovarlar ulushi ishlab chiqarilgan mahsulotning umumiy sotuv hajmida 30 foizdan yuqori bo‘lsa, soliq stavkasi 50 foizga qisqaradi.

Prezidentimiz o‘zining 2012-yil 19-yanvardagi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011-yilda Respublikani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlariga va 2012-yilda iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishning eng muhim ustuvor vazifalariga bag‘ishlangan majlisidagi ma‘ruzasida birinchi darajali e‘tibor – mamlakatimiz iqtisodiyotining raqobatdoshligini oshirish bo‘yicha dastur tayyorlash va uni amalga oshirish xususida:

Bu sohani rivojlantirish maqsadida Hukumatimiz tomonidan 2006–2011-yillar mobaynida bir qancha chora-tadbirlar amalga oshirildi:

- fan va texnologiyani muvofiqlashtirish, innovatsion faoliyatni moliyalashtirish yaxshilandi (Fan va texnologiyalar bo‘yicha Davlat qo‘mitasi qayta tashkil etildi, texnologiyalar transferti bo‘yicha markazlar yaratildi, 2007-yildan boshlab har yili Sanoat yarmarkasi va kooperatsion birja, 2008-yildan Innovatsion g‘oyalar, texnologiyalar va loyihalar Yarmarkasi tashkillashtirilmoqda);

- iqtisodiyot sohalarini modernizatsiya, texnik va texnologik qayta jihozlash bo‘yicha Davlat dasturlari qabul qilindi (PF-4058 28.11.2008-y. Prezidentimiz Farmoni va u asosda qabul qilingan qonun hujjatlari);

- sanoat kooperatsiyasi asosida mahsulotlarni mahallilashtirish Davlat dasturini amalga oshirish davom ettirildi (PQ-1306 23.03.2010-y., PQ-1590 29.07.2011-y.). Iqtisodiyotni rivojlantirish uchun soliq siyosatini liberallashtirish, soliq yukini kamaytirish, soliqqa tortish tizimini soddalashtirish borasida oxirgi yillarda keng ko‘lamli ishlar amalga oshirildi.

⁷ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 14 март 2007 йилдаги ПФ-3860-сонли “Ишлаб чиқаришни модернизациялаш, техник ва технологик қайта жиҳозлашни рағбатлантиришга оид қўшимча чоратадбирлар тўғрисида”ги Фармони



Xususan:

- yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i stavkasi 38 foizdan 9 foizgacha;
- soddalashtirilgan soliq tizimini qo'llovchi mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun yagona soliq to'lovi 13 foizdan 5 foizga (2012-yilda) tushirildi;
- jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining yuqori stavkasi 45 foizdan 22 foizga, minimal stavkasi 15 foizdan 9 foizga (2012-yilda) tushirildi;
- kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari uchun soliqqa tortish, soliq hamda moliyaviy hisobotlarni taqdim etish tizimi soddalashtirildi.

2003-yilda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni⁸ qabul qilindi. Mazkur Farmonga asosan "o'rta korxonalar" tushunchasi bekor qilindi va 2004-yil 1-yanvardan boshlab quyidagilar kichik biznes subyektlari hisoblanadi:

- yakka tartibdagi tadbirkorlar;
- ishlab chiqarish tarmoqlarida band bo'lgan xodimlarning o'rtacha yillik soni 20 kishidan, xizmat ko'rsatish sohasi va boshqa ishlab chiqarishga aloqador bo'lmagan tarmoqlarda 10 kishidan, ulgurji, chakana savdo va umumiy ovqatlanish sohasida 5 kishidan oshmagan mikrofirmalar.

Quyidagi tarmoqlarda band bo'lgan xodimlarning o'rtacha yillik soni:

- yengil va oziq-ovqat sanoati hamda qurilish materiallari sanoatida – 200 kishidan;
- metallga ishlov berish va asbobsozlik, yog'ochni qayta ishlash hamda mebel sanoatida – 100 kishidan;
- mashinasozlik, metallurgiya, yoqilg'i-energetika va kimyo sanoati, qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqarish va qayta ishlash, qurilish va boshqa sanoat-ishlab chiqarish sohalarida – 50 kishidan;
- fan, ilmiy xizmat ko'rsatish, transport, aloqa, xizmat ko'rsatish sohalarida (sug'urta kompaniyalaridan tashqari), savdo va umumiy ovqatlantirish hamda boshqa noishlab chiqarish sohalarida – 25 kishidan oshmagan kichik korxonalar.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yildagi Farmoniga⁹ asosan Mikrofirmalar va kichik korxonalar ta'lim muassasalari bitiruvchilari bilan mehnat shartnomalarini tuzganda, band bo'lgan xodimlarning o'rtacha yillik soni qonunchilikda belgilangan cheklangan me'yordan 20 foizgacha oshirish huquqi berildi (3 yilga). Bunda:

- Mikrofirmalar:

1. Ishlab chiqarish tarmog'ida 20 kishidan 24 kishiga;
2. Xizmat ko'rsatish sohasida 10 kishidan 12 kishiga;
3. Savdo va umumiy ovqatlanish sohasida 5 kishidan 6 kishiga;

- Kichik korxonalar: 1. Sanoat (tarmoqlar bo'yicha) 100 kishidan 120 kishiga;

2. Ishlab chiqarish va qishloq xo'jaligi tovarlarini qayta ishlash sohasida 50 kishidan 60 kishiga;
3. Xizmat ko'rsatish sohasida 25 kishidan 30 kishiga.

Kichik va o'rta biznes uchun global muammolardan biri soliqqa tortishdir. Muammo soliq qonunchiligidagi mavjud qarama-qarshiliklar va uning beqarorligi bilan bog'liq bo'lib, tarkibiy soliqlar davlat va mulk shakllariga, kichik biznes faoliyatining muayyan turiga beriladigan imtiyozlarga bevosita bog'liqdir. So'nggi yillarda O'zbekistonda kichik biznesning mamlakat va uning iqtisodiyotini rivojlantirish, "o'rta sinf"ni shakllantirish va mamlakatda ijtimoiy va siyosiy barqarorlikni o'rnatish uchun juda muhimligi haqida ko'p muhokamalarga olib keldi. So'nggi o'n yil ichida kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan ko'plab farmonlar, qarorlar va qonunlar chiqarildi va qabul qilindi, ammo bu O'zbekiston Respublikasidagi tadbirkorlarning ahvolini bir qismigagina yaxshilandi va buning asosiy sababi biznes yanada tabaqalashtirib, ularga soliq imtiyozlarni samarli qo'llashga zaruriyat tug'ildi. Tanlangan mavzuning dolzarbligi kichik va o'rta biznesni rivojlantirish zarurligidadir, chunki O'zbekistonda iqtisodiyotning bozor munosabatlariga o'tishi bilan ushbu biznesni rivojlantirishda ko'plab muammolar paydo bo'la boshladi, ular ko'pincha tadbirkorlar, ayniqsa o'z biznesini boshlaganlar tomonidan uchraydi. Kichik va o'rta biznes subyektlarini soliqqa tortishning iqtisodiy mohiyatini sinchkovlik bilan va har tomonlama o'rganishni taqozo etadi va ushbu soliq konsepsiyaning mohiyatini ochib berish uchun kichik va o'rta biznes subyektlarini soliqqa tortish mexanizmini soddalashtirishning barcha turlarini batafsil ko'rib chiqish kerak. So'nggi o'n yil ichida ko'plab mualliflarning ko'plab asarlarini tahlil qilib, ushbu mavzu oid yagona to'g'ri tahlillarni olib borilishiga hozirgacha erishilmagan degan xulosaga kelishimiz mumkin. Soliq ilmiy tadqiqotning asosiy obyekti hisoblanadi. Bu jamiyat va umuman davlatning huquqiy, iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy manfaatlarining butun mohiyatini anglatadi. Soliqqa tortish metodologiyasini o'rganish chuqur tahlil qilish va soliqlarning mohiyatini aniqlash uchun zarurdir. Boshqacha qilib aytganda, bilish usullari tizimini tahlil qilish kerak, bu esa o'z navbatida soddalashtirilgan soliqlar nazariyasi va amaliyotini bog'laydi.

8 Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2003 йил 30 августда ПФ-3305-сонли Фармони.

9 Ўзбекистон Республикаси Президентининг "Таълим муассасаларининг битирувчиларини тadbirkorlik faoliyatiga jalb etish borasidagi qushimcha chora-tadbirlarni tugrsida"gi ПФ-4232-сонли Фармони



Hozirgi kunda kichik va o'rta biznesning holati mamlakatda ro'y berayotgan o'sishning muhim ko'rsatkichidir. Mamlakatimiz iqtisodiy va moliyaviy inqirozni hamda koronavirus pandemiyasini ham boshdan kechirdi, bu kichik biznes rivojiga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Hozirgi vaqtda iqtisodiy o'zgarishlar sharoitida kichik va o'rta biznesni rivojlantirish muayyan hududlar uchun ham, umuman mamlakat uchun ham innovatsion ahamiyatga ega. "Yurtimizda ushbu kichik va o'rta biznes yo'nalishni qo'llab-quvvatlash va barcha zarur sharoitlarni yaratib berish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijasida kichik tadbirkorlik subyektlarining yalpi ichki mahsulotdagi ulushi tobora ortib boryapti. Aniq raqamlarga to'xtaladigan bo'lsak, bu boradagi ko'rsatkich 1991-yilda atigi 1,5 foiz, 2000-yilda 31 foizni tashkil etgan edi. 2016-yilda mazkur sohaning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 64,9 foizga yetdi. Bu raqamlar yil sayin ortsa ortyaptiki, aslo, orqaga pastlayotgani yo'q. Xususan, o'z faoliyatini yo'lga qo'ygan tadbirkorlik subyektlari soni 2016-yildagi 210,6 ming birlikdan 2020-yilda 411,2 ming birlikka yetdi. Umumiy korxona va tashkilotlar tarkibida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 2020-yilda 86,5 foizga qadar o'sdi"¹⁰. "Rossiyada kichik va o'rta biznesning ulushi 22%, AQShda ulushi 50%, Xitoyda 60%"¹¹. Ushbu mamlakatlarda kichik biznesga yordam berish va ularni tashkil etish ustuvor vazifadir. O'zbekistonda ko'plab fuqarolar o'z bizneslarini ochish yoki boshlashga ikkilanadilar, chunki ular kelajakka ishonch hosil qila olmaydilar. "O'zbekiston 2023-yilgi iqtisodiy erkinlik indeksidagi o'rnini 8 pog'onaga yaxshiladi va 184 davlat orasida 109-o'rinni egalladi. Indeks 1995-yildan beri Heritage Foundation tomonidan The Wall Street Journal bilan hamkorlikda tuziladi. 2022-yilda mamlakat reytingda 117-o'rinda, 2021-yilda 108-o'rinda, 2020-yilda 114-o'rinda edi. O'tgan yilga nisbatan O'zbekistonda iqtisodiy erkinlik darajasi 0,8 punktga oshdi va 56,5 ko'rsatkichga yetdi (maksimal sifatida 100 ball qabul qilingan – bu biznes uchun ideal sharoitlarni bildiradi). Reytingda mamlakatning eng yaqin qo'shnilari Quvayt (108-o'rin) va Kambodja (110-o'rin) hisoblanadi. Indeksni tuzishda tadqiqotchilar mulk huquqi, sud samaradorligi, soliq yuki, tadbirkorlik erkinligi, mehnat bozori erkinligi, savdo va sarmoya kabi 12 omilni baholaydilar. Mamlakatlar iqtisodiyoti besh guruhga bo'lingan: erkin, barcha omillarni hisobga olish natijalariga ko'ra 80 dan 100 ballgacha, asosan erkin (70–79,9 ball), o'rtacha erkin (60–69,9), asosan erkin bo'lmagan (50–59,9) va repressiv (0–49,9)"¹².

"Mamlakatda o'tgan yilgi takliflar asosida biznes subyektlari mikro, kichik, o'rta va yirik toifalarga bo'lindi va ularning har biri bilan alohida yondashuvlar asosida ishlash tizimi yo'lga qo'yildi. Shuningdek, tuman va shaharlar ham 5 ta toifaga ajratildi, 60 ta tumanga alohida soliq, kredit va moliyaviy yordam rejimlari joriy qilindi. Natijada bu tumanlardagi tadbirkorlar o'tgan olti oyda qariyb 1 trillion so'mlik imtiyozlardan foydalandi. Buning hisobidan 20 ta tumandagi tadbirkorlarning daromadi o'tgan yilga nisbatan 1,5-2 barobar oshdi. Boshqacha aytganda, joriy yilning birinchi yarmida 7 trillion so'mdan 11,5 trillion so'mga ko'paygan"¹³.

XULOSA VA TAKLIFLAR.

Homiylik bilan bog'liq muammolar bo'yicha korxonalarning moliyaviy holatiga va tegishincha, ularning soliqlarni to'lashiga homiylikning ixtiyoriy-majburiy tizimi jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Barcha darajadagi hokimiyatlar va davlat organlari korxonalarga haqiqatda "homiylik solig'ini" yuklashadi, ushbu yordamni oluvchilar tomonidan ular har doim ham maqsadga muvofiq foydalanilmaydi. Shu munosabat bilan:

- homiylik mablag'lari soliq solish bazasidan chiqarib tashlanishi kerak emas;
- ham homiyda, ham oluvchida homiylik mablag'lari hisobi va hisoboti tizimini tashkil etish zarur (ushbu mablag'lar budjet mablag'lari sifatida hisoblanishi kerak). Soliq organlari tomonidan oluvchida homiylik mablag'laridan maqsadli foydalanilishi ustidan nazorat ta'minlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Davlat soliq qo'mitasi ma'lumotlari. www.soliq.uz.
2. Nesbit J. (2013) International economic relations. –M.: Dorchester, 419 p.
3. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi (2020) - Toshkent: G'afur G'ulom nashriyot uyi.- 640 b.
4. Вишневский В.П. (2019) Экономические и регуляторные последствия цифровой революции в налогообложении. Вестник Томского государственного университета экономика. Научный журнал № 47. 9 стр.
5. Пугачев А.А., Парфенова Л.Б. Налоги в цифровой экономике и цифровые технологии в налогообложении: дилемма или диалектика. журнал: Философия хозяйства №: 4 (124) Стр. 197-206.
6. Смит А., (1992) "Исследования о природе и причинах богатства народов" т.2. Пер. с англ. – М.: – 612 с.
7. Токарев И.В., Манина М.П. (2015) Проблемы оценки экспортного потенциала предприятия // Научный клуб. URL: <http://www.sophus.at.ru>.

¹⁰ <https://yuz.uz/news/kichik-biznes-iqtisodiyotning-qon-tomiri>

¹¹ Официальный сайт Федеральной службы государственной статистики. [Электронный ресурс]. Режим доступа: <http://www.gks.ru/> (дата обращения 24.04.2019).

¹² <https://www.gazeta.uz/uz/2023/03/07/index-of-economic-freedom/>

¹³ <https://president.uz/uz/lists/view/6561>



8. Развитие научных представлений о налогообложении: общие и частные теории налогов Текст научной статьи по специальности "Экономика и бизнес" Иванова Н.В. 2011 г.
9. Смит А. Исследование о природе и причинах богатства народов. М., 1935.
10. Подшивалова Д. Я. Налоговые разъяснения в контексте обеспечения правовой определенности в сфере налогообложения в РФ / Д. Я. Подшивалова // Юридическая наука. – 2021. – № 1. – С. 35–40.
11. Подшивалова Д. Я. Подход к правовой определенности в рамках налогово-правового регулирования в Канаде / Д. Я. Подшивалова // Финансовое право. – 2021. – № 3. – С. 37–41. – DOI: 10.18572/1813-1220-2021-3-37-41.
12. <https://www.worldwide-tax.com/taxrevenueadministrations.asp>
13. Ткачук И. К. Применение международных инструментов предупреждения налоговых споров в российских условиях / И. К. Ткачук // Право и государство: теория и практика. – 2021. – № 6(198). – С. 16–20. – DOI: 10.47643/1815-1337_2021_6_16.

Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2024. № 9

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

